

СЎЗ САЊАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№2 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2025-2>

Бош муҳаррир:
Тўхтасинов Илҳом
п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:
Тухтасинов Илхом
д.п.н., профессор (Узбекистан)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:
Tuhtasinov Ilhom
DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр
академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўғли
ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким
ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил
ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммаед
к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт
Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддиқова Ирода
ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар
ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат
масбул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр
академик. (Узбекистан)

Якуб Умар оглы
д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова
д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Миннуллин Ким
д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Керимов Исмаил
д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Куренов Рахыммаед
к.ф.н. (Туркменистан)

Кристофер Жеймс Форт
Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Мирзаев Ибодулло
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Балтабоев Ҳамидулла
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Дустмухаммедов Хуршид
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Лиходзиевский А.С.
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Сиддиқова Ирода
д.ф.н., профессор (Узбекистан)

Шиукашвили Тамар
д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат
отв. секретарь, PhD, доцент
(Узбекистан)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov
academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli
Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova
Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim
Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail
Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed
Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort
University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda
Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar
Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat
PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

1. Murodova Mo'tabar Ibodullayevna TILAKLAR VA OLQISHLARNI NUTQIY AKTLAR SIFATIDA LINGVISTIK NUQTAI NAZARDAN TAHLILI...	5
2. Yusupova Soxiba Islombek qizi O'ZBEK BOLALAR O'YIN QO'SHIQLARIDA ATOQLI OTLARNING QO'LLANILISHI.....	9
3. Lolayeva Gulniso Geldiyorovna GAZETA MATNINING UMUMIY VAZIFALARI.....	13
4. Sharopova Ra'no, Karimova Latofat HOZIRGI O'ZBEK TILIDA "TARBIYA" LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI TARKIBI VA TASNIFIQA OID QARASHLAR.....	18
5. Намазова Манзура Ураковна ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ЖИЗНИ И ЧАСТИ ИММИГРАНТОВ В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ.....	24
6. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	32
7. Esirgapov Mukhiddin Nizomiddinovich THE INFLUENCE OF THE INTERNET AND DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE ENGLISH LANGUAGE.....	37
8. Karimova Dilorom Shavkatovna VERBAL AND NON-VERBAL INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF "DEATH" AND "LIFE".....	43
9. Narzullaeva Dilnoza Sanatovna CONCEPTUAL METAPHOR THEORY: EXPLORING THE ROLE OF METAPHOR IN CONCEPTUALIZING ABSTRACT CONCEPTS.....	48
10. Шахзод Турниязов ЎЗБЕК ТИЛИГА ҚИЛИНАЁТГАН ЗАМОНАВИЙ БАДИИЙ ТАРЖИМАЛАРДА МУАЛЛИФ УСЛУБИНИ САҚЛАШ МАСАЛАСИГА ДОИР (О. ГЕНРИ ҲИКОЯЛАРИ МИСОЛИДА).....	52
11. Matkarimova Gulira'no Abdullayevna XALQ OG'ZAKI IJODI VA MIFOLOGIK MANBALARDA UCHRAYDIGAN FITONIMLARNING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI.....	63
12. Алена Ялмагвевна Иванова ВЛИЯНИЕ КОНФУЦИАНСТВА НА ПРОЯВЛЕНИЕ ЭМОЦИЙ.....	68
13. Yunusova Gulshoda Dilshadovna EKVIVALENTLIK VA FE'L VALENSIYASI.....	80
14. Eshboyev Qahramon Bakir o'g'li O'ZBEK TILI SINONIMIK LUG'ATLARIDA DARAJALANISH METODOLOGIYASI.....	85
15. To'liboyeva Gulnura Baxadir qizi PEYZAJ BADIY VOSITA SIFATIDA (O'ZBEK VA QORAQALPOQ SHE'RIYATI MISOLIDA).....	91
16. Холбобоева Нилуфар Бахтиёр кизи НАВОИЙГА ТАХМИС.....	96
17. Сайымбетов Шарафатдин Уракбаевич И. ЮСУПОВНИНГ «ДАЛА АРМОНЛАРИ» ПОЭМАСИДА ИНДИВИДУАЛ МЕТАФОРЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ВА БАДИИЙ ВАЗИФАЛАРИ.....	102
18. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	106
19. Xolova Muyassar Abdulhakimovna O'ZBEK SHEVALARIDA FONETIK O'ZGARISHLAR (Surxondaryo viloyati misolida).....	111
20. Malika Soliyeva INGLIZ TILIDAGI INTONATSIYANING AYRIM FONOSTILISTIK XUSUSIYATLARI.....	118
21. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ УСЛУБИЙ ФУНКЦИЯЛАРИ ХУСУСИДА.....	122

22. Xurinsa Xudoyberdiyeva TROPLARNING USLUBIY XUSUSIYATI (Xosiyat Rustamova lirikasi misolida).....	128
23. Israilova Sayera Tashpulat qizi INTERFAOL USULLAR ORQALI INGLIZ TILIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH (Tarix yo‘nalishi talabalari uchun).....	133
24. Israilova Sayera Tashpulat qizi INGLIZ XALQ ERTAKLARI ORQALI BOSHLANG‘ICH SINFLARIDA O‘QUVCHILARIDA O‘QISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH.....	137
25. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	143
26. Робиға Мамбетова ҚОЗОҒИСТОН ЎЗБЕКЛАРИ ФОЛЬКЛОР АСАРЛАРИНИНГ ЛИНГВОМАДАНИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	149
27. Ҳамидулла Годжиев ТУРКИСТОН ЖАДИДЧИЛИК ҲАРАКАТИНИНГ УМУММАЪРИФИЙ – УМУМАДАБИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ.....	154
28. Ergashova Rano Turaevna LINGUISTIC FEATURES OF AVIATION TERMINOLOGY IN ENGLISH, RUSSIAN, AND UZBEK LANGUAGES: SPECIFICITIES AND COMMONALITIES.....	160
29. Bobir Maxammadov MIKROSOFT VINDOVS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING LEKSIKOGRAFIK TAVSIFI MASALALARI: MUAMMOLAR VA VAZIFALAR.....	170
30. Xalimova Firuza Rustamovna POETIK MATNDA BADIY KONSEPTLAR VA METAFORALARNING KOGNITIV-ESTETIK TALQINI.....	176
31. Комила Мамадиёрова ОНОМАСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ИНТЕГРАЦИОН ТАБИАТИ ХУСУСИДА.....	182
32. Матлуба Шукурова ЭНАХОН СИДДИҚОВА ШЕЪРИЯТИДА “АЁЛ” КОНЦЕПТИНИНГ АКТУАЛЛАШУВИ.....	187
33. Tashkulova Zarnigor “SHARQ” KONSEPTI SEMANTIK MAYDONIDA PEYZAJNING IFODALANISHI (S. MOEM HIKOYALARI MISOLIDA).....	195



ISSN: 2181-9297


www.tadqiqot.uz

Yunusova Gulshoda Dilshodovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Koreyashunoslik oliy maktabi dotsenti, PhD

E-mail: gulyamir9@gmail.com

EKVIVALENTLIK VA FE'L VALENSIYASI
 <https://doi.org/10.5281/zenodo.17087370>
ANNOTATSIYA

Ushbu maqola ekvivalentlik tushunchasini tilshunoslikning fundamental kategoriyasi sifatida nazariy jihatdan o'rganadi. Maqolada ekvivalentlikning turli nazariy asoslari, unga yondashuvlar tahlil qilinib, jumladan, formal, dinamik (funktsional), semantik va pragmatik ekvivalentlik turlari yoritiladi. Shuningdek, fe'l valensiyasi konseptsiyasining til ichidagi ekvivalentlikni ta'minlashdagi markaziy ahamiyati atroflicha ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda koreys tilidagi misollar orqali ekvivalentlik turlari va fe'l valensiyasining amaliy qo'llanilishi ko'rsatib beriladi, shuningdek, mutlaq ekvivalentlikka erishishning nisbiy imkonsizligi va adekvatlik tushunchasining muhimligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Ekvivalentlik, tilshunoslik, til nazariyasi, fe'l valensiyasi, koreys tili, leksik-semantik ekvivalentlik, grammatik-sintaktik ekvivalentlik, pragmatik ekvivalentlik, intralingual ekvivalentlik.

Yunusova Gulshoda Dilshodovna

Associate Professor, PhD

Higher School of Korean Studies,

Tashkent State University of Oriental Studies

E-mail: gulyamir9@gmail.com

EQUIVALENCE AND VERB VALENCY**ANNOTATION**

This article theoretically explores the concept of equivalence as a fundamental category in linguistics. It analyzes various theoretical foundations and approaches to equivalence, including formal, dynamic (functional), semantic, and pragmatic types. The article also thoroughly examines the central role of the concept of verb valency in ensuring intralingual equivalence. Through examples from the Korean language, the study demonstrates the practical application of different types of equivalence and verb valency. Furthermore, it analyzes the relative impossibility of achieving absolute equivalence and emphasizes the importance of the concept of adequacy.

Keywords: Equivalence, linguistics, language theory, verb valency, Korean language, lexical-semantic equivalence, grammatical-syntactic equivalence, pragmatic equivalence, intralingual equivalence.

Юнусова Гульшода Дильшадовна
Доцент, PhD Высшая школа корееведения, Т
ашкентский государственный университет востоковедения
gulyamir9@gmail.com

ЭКВИВАЛЕНТНОСТЬ И ВАЛЕНТНОСТЬ ГЛАГОЛА

АННОТАЦИЯ

В данной статье теоретически рассматривается понятие эквивалентности как фундаментальная категория лингвистики. Анализируются различные теоретические основы и подходы к эквивалентности, в том числе формальная, динамическая (функциональная), семантическая и прагматическая эквивалентность. Особое внимание уделяется центральной роли концепции валентности глагола в обеспечении внутриязыковой эквивалентности. На примерах из корейского языка показано практическое применение различных типов эквивалентности и валентности глаголов. Также анализируется относительная невозможность достижения абсолютной эквивалентности и подчеркивается важность понятия адекватности.

Ключевые слова: Эквивалентность, лингвистика, теория языка, валентность глагола, корейский язык, лексико-семантическая эквивалентность, грамматико-синтаксическая эквивалентность, прагматическая эквивалентность, внутриязыковая эквивалентность.

Kirish

Tilshunoslikda ekvivalentlik tushunchasi, ayniqsa til tahlilida markaziy o'rinni egallaydi. Dastlab, ekvivalentlik so'zlar va grammatik konstruksiyalarning faqatgina formal mosligi sifatida talqin qilingan bo'lsa-da, keyinchalik bu yondashuv mazmuni to'liq va samarali yetkazish uchun yetarli emasligi aniqlandi. Shu bois, ekvivalentlikni chuqurroq anglash yo'llari qidirildi va turli nazariy yondashuvlar rivojlandi. Ushbu maqola ekvivalentlikning nazariy asoslari va yondashuvlarini, shuningdek, fe'l valensiyasi tushunchasini atroflicha ko'rib chiqadi. Maqola ekvivalentlikning nazariy asosi sifatida tilshunoslikning eng muhim kategoriyalaridan biri bo'lgan fe'l valensiyasi tushunchasini chuqur tahlil etadi va koreys tili misolida amaliy jihatdan qo'llanilishini ko'rsatib beradi.

1. Ekvivalentlik tushunchasi tilshunoslikda: nazariy asoslar va yondashuvlar.

Ekvivalentlik masalasi tilshunoslikda, xususan, til nazariyasi, kontrastiv tilshunoslik va til ta'limi sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tushuncha bir til doirasida yoki ikki yoki undan ortiq tillarda mazmunan, funksional va kontekstual jihatdan mos keluvchi til birliklarini aniqlash va tahlil qilishni anglatadi (Jakobson, 1984).

Rus tilshunosi V. Vinogradovning ta'kidlashicha, ekvivalentlik original matn va tarjima qilingan matnda mavjud bo'lgan mazmuniy, semantik, stilistik, funksional va kommunikativ axborotning nisbiy tengligini saqlashni nazarda tutadi. Bu tarjimalar oralig'idagi muvofiqlikni anglatuvchi kengroq tushunchadir (Vinogradov, B.S. Vvedeniye v perevodovedeniye, 2004).

Dastlabki lingvistik yondashuvlar asosan leksik va sintaktik muvofiqlikni ta'minlashga qaratilgan edi. Biroq, keyinchalik tildagi semantik va pragmatik omillarning ahamiyati tobora ortib bordi. Shu nuqtai nazardan, grammatik-semantik ekvivalentlik nafaqat grammatik jihatdan mos kelishni, balki matnning asosiy ma'nosini ham aniq va to'liq ifoda etishni talab qiladi. Bunda ma'noviy vazifalar, fe'lning valensiyasi va boshqa mazmuniy omillar chuqur tahlil qilinadi.

Zamonaviy tadqiqotlar ekvivalentlikning turli darajalarini, ya'ni "formal"dan "dinamik" gacha bo'lgan ko'lamlarini aniqlashga intiladi (Newmark, 1988).

Formal ekvivalentlik (Formal equivalence) – manba matnning shakli, so'z tartibi va grammatik tuzilishini iloji boricha saqlashga intiladi. Bu yondashuv ko'pincha ilmiy, texnik matnlar va she'riy tahlillarda qo'llanilishi mumkin, ammo boshqa hollarda ma'noni to'liq yetkazishga to'sqinlik qilishi mumkin. Ju Sun Meaning ta'kidlashicha, Ju Sun Meaning ta'kidlashicha, dastlabki davrda manba tilga (출발어) sodiq bo'lgan formal ekvivalentlikni (형식적 등가) taklif qilingan (Ju Sun Mean, 2021).

Misol: Koreys tilida “나도 그렇게 생각해요.” Men ham shunday o‘ylayman. Mazkur juma formal ekvivalentlik nuqtai nazaridan, masalan, “나 또한 그러한 생각을 합니다.” shaklida ifodalash mumkin. Bu yerda “또한” (ham, shuningdek), “그러한” (shunday, bunday) va “생각을 합니다” (o‘ylayman, fikr bildiraman) kabi formalroq yoki grammatik jihatdan to‘liqroq variantlar ekvivalent hisoblanadi.

Dinamik (yoki funksional) ekvivalentlik (Dynamic/functional equivalence) – bunda matnning asosiy vazifasi – tinglovchiga ta‘sir etish va asl xabar ta‘sirini yetkazishdir. Tilshunos olimlar Yujin Albert Nayda hamda Charles Russell Taberlar (1969) fikrlariga ko‘ra, bunda maqsad tinglovchi matnni xuddi asliyatdagi kabi tushunishi va idrok etishi kerak. Bu yondashuvda madaniy va kontekstual farqlar hisobga olinadi.

Keyinchalik, Nida va Taber formal ekvivalentlikni rivojlantirib, dinamik ekvivalentlik (역동적 등가)ni ilgari surdilar. Bunda manba til o‘quvchisiga ta‘sir qilganidek, maqsad til o‘quvchisiga ham xuddi shunday ta‘sir ko‘rsatishiga e‘tibor qaratiladi (Ju Sun Mean, 2021).

Koreys tilidagi misollarga murojaat qiladigan bo‘lsak, koreys tilida hurmat darajasi juda muhim. Agar “선생님 오셨어요.” degan jumla berilsa, bu formal ekvivalentlikda “O‘qituvchi keldi (hurmat bilan)” bo‘ladi. Dinamik ekvivalentlikda esa, shu hurmatni ifodalashning boshqa, vaziyatga mosroq usullari, masalan, hurmat darajasi yuqoriroq bo‘lgan “선생님께서 오셨습니다.” yoki oddiy vaziyatda “선생님 오셨습니다.” kabi variantlar orqali ta‘minlanishi mumkin. Bunda tinglovchi uchun ham xuddi shunday hurmat tuyg‘usi hosil bo‘lishi muhim.

Semantik ekvivalentlik (Semantic equivalence) – so‘zlarning denotativ (asosiy) va konnotativ (qo‘shimcha) ma‘nolarini maksimal darajada saqlashga yo‘naltirilgan. Bu yondashuvda ma‘noning nozik tomonlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Misol uchun, koreys tilida “빨갳다” (qizil) va “붉다” (qizil rangning chuqur, to‘qroq turi, ko‘pincha qon, olov bilan bog‘liq) ikkala fe‘l ham “qizil” ma‘nosini beradi. Semantik ekvivalentlik ularning ma‘no farqini hisobga oladi: “붉은 노을” (to‘q qizil shafaq) va “빨간 사과” (qizil olma). Bu yerda “붉다” ning “qizilning chuqurroq, yorqinroq turi” ekanini bilish semantik ekvivalentlikni ta‘minlaydi.

Pragmatik ekvivalentlik (Pragmatic equivalence) – matnning kommunikativ maqsadini va tinglovchiga (o‘quvchiga) ta‘sirini aks ettirishga qaratilgan ekvivalentlik turidir. Bunda matnning maqsadi, kontekst va auditoriya kabi pragmatik omillar muhim rol o‘ynaydi (House, 1977).

Misol: Koreys tilida “수고하셨습니다” ko‘pincha ish tugaganidan so‘ng aytiladigan, “yaxshi ish qildingiz” yoki “rahmat” ma‘nosini beruvchi iboradir. Buni oddiygina “고맙습니다” (rahmat) yoki “잘하셨습니다” (yaxshi bajardingiz) kabi pragmatik jihatdan ekvivalent bo‘lgan iboralar bilan almashtirish mumkin, chunki bu iboralar ham xuddi shunday minnatdorchilik va baho bildirish vazifasini bajaradi.

Til tizimlarining struktura, madaniy konnotatsiyalar va ifoda uslublaridagi farqlar sababli, mutlaq ekvivalentlikka erishish amalda deyarli mumkin emasligi tan olinadi. Shu bois, “tarjimadagi moslik” (adekvatlik) kontseptsiyasi rivojlandi, unga ko‘ra tarjima kommunikativ maqsad va qabul qiluvchi tomonning kutishlariga javob berishi kerak. Adekvatlik ekvivalentlikning kengroq tushunchasi bo‘lib, u turli darajadagi ekvivalentliklarni o‘z ichiga oladi va til ichidagi ma‘no uzatishda optimal yechim topishga yordam beradi.

2. Fe‘l valensiyasi: Ekvivalentlikning asosiy kategoriyasi

Fe‘l valensiyasi – bu fe‘lning sintaktik va semantik jihatdan ma‘lum son va turdagi aktantlar (ishtirokchilar) bilan bog‘lanish qobiliyatidir. Aktantlar – bu vazifasi bo‘yicha majburiy yoki ixtiyoriy bo‘lishi mumkin bo‘lgan, odatda ot, olmosh yoki boshqa nomli guruhlar bilan ifodalangan sintaktik birliklardir. Fe‘lning valensiyasi uning atrofidagi so‘zlarni, ya‘ni sintaktik “atrof-muhitini” belgilaydi (Tesnière, 1959).

Valensiyaning ikki asosiy ko‘rinishi mavjud:

Miqdoriy valensiya: Fe‘l ma‘nosini to‘liq ifodalash uchun zarur bo‘lgan aktantlar sonini ko‘rsatadi.

Misol 1. Bir valentli fe'l: “자다” (uxlamoq) fe'li faqat bitta – subyekt (uxlayotgan shaxs) – aktantni talab qiladi.

아이가 잔다. Bola uxlayapti.

Misol 2. Ikki valentli fe'l: “읽다” (o'qimoq) fe'li kamida ikkita aktantni talab qiladi: subyekt (o'quvchi) va obyekt (o'qilayotgan narsa).

학생이 책을 읽는다. Talaba kitob o'qiydi.

Misol 3. Uch valentli fe'l: “주다” (bermoq) fe'li esa uchta aktantni talab qiladi: subyekt (beruvchi), obyekt (berilayotgan narsa) va manzil (kimga berilmoqda).

선생님이 학생에게 책을 주었다. O'qituvchi talabaga kitob berdi.

Sifatli valensiya: Aktantlarning semantik rollari va grammatik shakllarini belgilaydi.

Misol: “읽다” (o'qimoq) fe'li o'qilayotgan narsani bildiruvchi aktantni talab qiladi, odatda bu to'g'ridan-to'g'ri qo'shimcha sifatida va otning tushum kelishigida (-을/를) ifodalanadi.

그는 신문을 읽고 있다. U gazeta o'qiyapti. (Obyekt “신문” (gazeta) tushum kelishigida, semantik roli – o'qilayotgan narsa).

Valensiya majburiy va ixtiyoriy (majburiy bo'lmagan) bo'linadi. Majburiy valensiya fe'l ma'nosining to'liq va grammatik jihatdan to'g'ri bo'lishi uchun zarur bo'lgan aktantlarni anglatadi; ixtiyoriy valensiya esa gap ma'nosini o'zgartirmasdan yoki grammatikani buzmasdan tashlab ketilishi mumkin bo'lgan qo'shimcha aktantlardir.

Majburiy valensiyaga misol qilib quyidagilarni keltirish mumkin: “학생이 책을 읽는다.” Talaba kitob o'qiyapti. Mazkur jumlada “책을” (kitobni) fe'lning majburiy aktantidir, chunki 학생이 읽는다. Talaba o'qiydi. - degan gap kontekstsiz to'liq ma'no bermaydi (nimani o'qiydi?).

Ixtiyoriy valensiya misoli: 학생이 도서관에서 책을 읽는다. Talaba kutubxonada kitob o'qiydi. - gapida esa “도서관에서” – kutubxonada ixtiyoriy aktant sifatida joylashgan, chunki “학생이 책을 읽는다.” jumlasini o'z ma'nosini to'liq yetkazadi. “도서관에서” qo'shimcha ma'lumot beradi.

Fe'l valensiyasini o'rganish gap tuzilishini tushunishda, avtomatik sintaktik tahlil va tabiiy tilni qayta ishlashda katta ahamiyatga ega. Fe'llarning valensiyali xususiyatlarini aniqlash aniq va samarali lingvistik modellar hamda tabiiy tilni qayta ishlash algoritmlarini yaratishda zarur hisoblanadi. Shuningdek, valensiya lug'atlar va grammatik qo'llanmalarni tayyorlashda muhim mezonlardan biridir, chunki u fe'llarning turli kontekstlarda to'g'ri qo'llanilishiga oid ma'lumot beradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, tilshunoslikda ekvivalentlik tushunchasi markaziy ahamiyatga ega bo'lib, u mazmun, funksiya va kontekst nuqtai nazaridan til birliklari o'rtasidagi moslikni ifodalaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu tushunchaning nazariy asoslari formal, dinamik, semantik va pragmatik yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, fe'l valensiyasi konsepsiyasi til ichidagi ekvivalentlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, uning miqdoriy va sifatli jihatlari til mexanizmlarini chuqur anglashga xizmat qiladi.

Til tizimlarining murakkabligi tufayli mutlaq ekvivalentlikka erishish imkonsiz ekanligi ta'kidlanadi. Shu sababli, tarjima jarayonida matnning kommunikativ maqsadiga va vaziyatga mosligini ta'minlovchi adekvatlik tushunchasi rivojlangan. Bu yondashuv tilshunoslikda samarali modellar yaratish, tabiiy tilni qayta ishlash hamda tarjimashunoslik amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Jakobson, R. Lingvistika va tarjima. Moskva: Nauka, 1984.
2. Vinogradov B.C. Problema ekvivalentnosti i tip perevodimogo teksta // Vvedeniye v perevodovedeniye (obshchiye i leksicheskiye voprosy). 2004. – <http://sitim.sitc.ru>.
3. Newmark, P. A Textbook of Translation. London: Prentice Hall, 1988.

4. Nida, E.A. Language Structure and Translation. Stanford: Stanford University Press, 1964.
5. Nida, E.A., Taber, C.R. The Theory and Practice of Translation. Leiden: E.J. Brill, 1969.
6. House, J. A Model for Translation Quality Assessment. Tübingen: Narr, 1977.
7. Tesnière, L. Éléments de syntaxe structurale. Paris: Klincksieck, 1959.
8. Ju Sun Mean. Understanding the translation process (equivalent aspect) // The Journal of Direction and Development of Korean Studies in Russia. 2021. Vol. 2, № 1. P. 18–24.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 2 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 8, НОМЕР 2

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 8, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000